



UDK:378:37.091.3:811.111

Guljamol AZIMOVA,

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: guljamolazimova15@gmail.com

PhD, dotsent U.Jabbarov taqrizi asosida

CURRENT ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Annotation

This article focuses on the concept of speech skills and highlights the pressing issues in developing the speech skills of future English language teachers based on the author's reflections. Additionally, recommendations for enhancing the speech skills of prospective English language teachers are provided.

Key words: Speech skills, communicative methods, real communicative situation, authentic materials, individual approach, pressing issues in developing speech skills.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье особое внимание уделено понятию речевых навыков, а также освещены актуальные проблемы развития речевых навыков у будущих преподавателей английского языка на основе авторских размышлений. Кроме того, приведены рекомендации по развитию речевых навыков у будущих преподавателей английского языка.

Ключевые слова: Речевые навыки, коммуникативные методы, реальная речевая ситуация, аутентичные материалы, индивидуальный подход, актуальные проблемы развития речевых навыков.

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING NUTQIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada nutqiy ko'nikma tushunchasiga alohida e'tibor qaratilib, til ta'limida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi dolzarb muammolar muallif fikrlari asosida yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: Nutqiy ko'nikmalar, kommunikativ metodlar, real nutqiy vaziyat, haqiqiy materiallar, individual yondashuv, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga oid dolzarb muammolar.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilini mukammal o'rgatish va o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jarayonda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2021-yil 19-maydagi RQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi qarori yurtimizda til ta'limini isloh qilish, yangi metodlar va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, uni xalqaro talablar darajasiga olib chiqishning huquqiy asosini yaratdi.

Amaliyotda esa talabalar nutqiy komretensiyasini shakllantirishda bir qator muammolar kuzatiladi. Xususan, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish, kommunikativ yondashuvning yetarli qo'llanilmasligi hamda interaktiv metodlardan foydalanish darajasining rastligi shular jumlasidandir.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi dolzarb muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini ilmiy asosda ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur ishda aynan ushbu masalalar atroflicha tahlil qilinadi hamda samarali metod va yondashuvlar taklif etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolada ko'tarilgan muammoni ilmiy asosda yoritish jarayonida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari hamda zamonaviy redagogik tadqiqotlaridan keng foydalanildi. Xususan, til o'qitish metodikasi, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlarga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi.

"Nutqiy ko'nikma" keng qamrovli tushuncha bo'lib, olimlar tomonidan turlicha ta'riflangan. Nutqiy ko'nikma haqida gar borar ekan, avvalo "nutq" tushunchasiga alohida to'xtalib o'tish joiz. Rus olimi N.I.Jinning Nutq-bu intellektni rivojlantiruvchi kanal bo'lib, chet tili qancha erta o'rganilsa, bilimlar oson o'zlashtiriladi [1]. Nutq insonni fikrlarini ifoda etish vositasi, shaxsni jamiyatda ijtimoiylashuvining asosiy sharti hisoblanadi. "Nutqiy ko'nikma" tushunchasi til ta'limida til o'rganuvchining turli nutqiy vaziyatlarda o'z fikr-mulohazalarini ravon bayon eta olish qobiliyatini anglatadi. Nutq og'zaki va yozma bo'lgani kabi nutqiy ko'nikmalar ham og'zaki va yozma shakllarga bo'lib o'rganiladi.

Chet tili o'qitish metodikasida til ko'nikmalari yozuv, o'qib tushunish, garirish va tinglab tushunish turlariga bo'lib o'qitilsada, ularni nutqiy ko'nikma sifatida yozma va og'zaki nutqiy ko'nikmalar sifatida shakllantirishni joiz deb tordik. Buning sababi shundaki, nutqni og'zaki yoki yozma bayon qilish orqali o'z aksini toradi. Demak, nutqiy ko'nikmalar ham aynan shu nuqtai nazardan o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qish va tinglab tushunish til ko'nikmalari esa bu ikki nutqiy ko'nikma shakllarini rivojlanishiga yordam beradi. Til o'rganuvchi chet tilida o'z fikrini og'zaki (dialog yoki monolog asosida) yoki yozma bayon qilar ekan urdusentga (nutqni yaratuvchi shaxs aylanadi). Axborotni tinglab tushunish yoki o'qish orqali qabul qiluvchi esa retsiriye deya nomlanadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, axborot avvalo til o'rganuvchi tomonidan qabul qilinadi. So'ngra, nutq orqali ro'yobga chiqadi. Bu jarayonda nutqning ravon va tinglovchiga to'liq yetib borishi nutqiy ko'nikmalarni qanchalik rivojlanganligiga bog'liqdir.

Og'zaki nutq

Yozma nutq

Nutqiy ko'nikmalar

1.1-rasm

Nutqiy ko'nikmalarni tashkil etuvchi nutq shakllari.

Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga oid bir qator dolzarb muammolar mavjud. Ushbu muammolar yuzasidan olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Xususan, D.R.Po'latova ushbu muammolarni tasniflab chiqqan:

-Muloqotga oid qiyinchiliklar, uyalish, qo'rquv, so'z boyligining yetarlicha shakllanmaganligi.

-Mazmunga doir qiyinchiliklar, ya'ni olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qayerda, kim bilan, qachon bo'lishi kabi dalillarni idrok etish bobida yoki ular orasidagi bog'lanishni ilg'ab olish, shuningdek, umumiy g'oyaga taalluqli qiyinchiliklar mavjuddir.

-Nutqiy idrok qilishning shart - sharoitidagi qiyinchiliklar. Bulardan nutq tezligi, ohangi va mexanik yozilgan audio matnning murakkabligini eslatish kifoya. Shu bilan birga, audio matnni bir marta idrok qilish, notanish odamni tinglash, ovozidagi o'ziga xoslik kabilar ham tushinishda g'ov bo'lishi tabiiy.

-Nutq shakliga oid qiyinchiliklar, ya'ni dialogik nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa jummalarni eshitib

xotirasida saqlash talaba uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

-Tilshunoslik nuqtai nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar.

-Leksik, grammatik va fonetik qiyinchiliklar deb ataladi. Leksikada juft tushunchalar (masalan, dunyo tomonlarini ifodalovchi so'zlar, ko'p ma'nolilik (polisemiya) turg'un birikmalardagi so'z ma'nosi, yordamchi so'zlar, grammatik jihatdan ona tilida yo'q hodisalar yoki fonetik tarafdin so'zning yozuvda va talaffuzda keskin tafovuti, urg'u va ohangning o'xshamasligi tegishli qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

-Audio matn tuzilishiga oid qiyinchiliklar, ya'ni audio matnning tuzilishi (kompozitsion – mazmuniy tuzilishi) ham qiyinchiliklarga olib kelishi aniqlangan. Chunki bayon etilayotgan axborotni ilg'ab olishga uning bevosita aloqasi bo'lib, gapning yoki satr boshining bir–biriga mantiqan yopishishi, matnning yuzaki yoki chuqurligi, notanish leksik birliklar ishtiroki va qator o'xshash kompozitsion – mazmuniy holatlar audiomatnning tushunilishi darajasini belgilovchi omillardir [2].

<input type="checkbox"/>	Muloqotga oid qiyinchiliklar	<input type="checkbox"/>	Nutq shakliga oid qiyinchiliklar
<input type="checkbox"/>	Mazmunga doir qiyinchiliklar	<input type="checkbox"/>	Lisoniy qiyinchiliklar
<input type="checkbox"/>	Nutqiy idrokka oid qiyinchiliklar	<input type="checkbox"/>	Audio matn tuzilishiga oid qiyinchiliklar

1.2-rasm.

Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda uchraydigan qiyinchiliklar

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kommunikativ jihatlari tahlil qilinganda, muloqot samaradorligining past darajada bo'lishi faqat til o'rganishga ajratilgan vaqtning yetishmasligi yoki oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlardazamonaviy ta'lim texnologiyalarining yetarli darajada egallanmaganligi bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu holat, ayniqsa, kommunikativ tayyorgarlik bilan uzviy integratsiyalashgan o'qitish metodikasining yetarlicha mukammal ishlab chiqilmaganligi bilan ham izohlanadi.

Talabalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida bir qator ustuvor talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ta'limni xalqaro mezon va standartlarga uyg'unlashtirish, kasbiy yo'nalishga mos holda tashkil etish, mustaqil ta'lim olish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish, o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda texnik vositalarni samarali qo'llash, shuningdek, qo'shimcha ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish muhim hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan nutqiy muammolarni yechimi topishda kommunikativlikka asoslangan metodlardan keng foydalanish, dars mashg'ulotlarida til o'rganuvchini haqiqiy til materiallari bilan tanishtirish, haqiqiy nutqiy vaziyatlar yaratib berish, til o'rganuvchilarga individual yondashuv, dars mashg'ulotlarida talabalarni dars markaziga qo'yish kabi samarali usullardan foydalanish zarur.


Til o'qitish jarayonida kommunikativlikka asoslangan metodlardan keng foydalanish zamonaviy pedagogikaning ustuvor

yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv til o'rganuvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularning amaliy nutqiy ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Kommunikativ metodlar o'quvchilarni real muloqot jarayoniga jalb etib, ularning erkin fikr bildirish, savol berish va javob qaytarish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Dars mashg'ulotlarida til o'rganuvchilarni haqiqiy til materiallari bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday materiallarga gazeta va jurnal maqolalari, audio va video lavhalar, intervyular, reklama matnlari hamda kundalik hayotda qo'llaniladigan turli yozma va og'zaki nutq namunalarini kiritish mumkin. Haqiqiy (autentik) materiallar o'quvchilarga tilning tabiiy qo'llanilish shakllarini anglash imkonini beradi va ularning tinglab tushunish hamda o'qib anglash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, dars jarayonida haqiqiy nutqiy vaziyatlarni yaratish kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bunda o'quvchilar turli ijtimoiy rollarni bajarish, kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlarni modellashtirish orqali muloqotga kirishadilar. Masalan, do'konda xarid qilish, mehmon kutib olish, suhbat olib borish yoki muammoli vaziyatni hal qilish kabi topshiriqlar orqali o'quvchilar tilni real kontekstda qo'llashni o'rganadilar.

Til o'rganuvchilarga individual yondashuvni ta'minlash ham samarali o'qitishning muhim shartlaridan biridir. Har bir o'quvchining til o'zlashtirish darajasi, qiziqishlari va o'rganish uslubi turlicha bo'lganligi sababli, o'qituvchi topshiriqlarni differensiallashtirishi, ya'ni ularni o'quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirishi lozim. Bu esa o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi va ularning o'zlashtirish samaradorligini ta'minlaydi.



I.3-rasm

Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish usullari

Bundan tashqari, zamonaviy dars mashg'ulotlarida talabani markazga qo'yish prinsipi muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'qituvchi bilim beruvchi asosiy manba emas, balki o'quv jarayonini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilar esa faol ishtirokchi sifatida mustaqil fikrlash, muhokama qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida bevosita qatnashadilar. Natijada, dars jarayoni interaktiv tus olib, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi yanada samarali rivojlanadi.

Umuman olganda, kommunikativlikka asoslangan metodlardan foydalanish, autentik materiallarni qo'llash, real nutqiy vaziyatlar yaratish, individual yondashuvni ta'minlash hamda o'quvchini dars markaziga qo'yish til o'qitish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa va tavsiyalar. Talabalarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish murakkab, ko'p omilli va uzluksiz pedagogik jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur jarayon samaradorligi nafaqat til o'qitishga ajratilgan vaqt yoki dastur mazmuniga, balki eng avvalo, o'qitish metodikasining kommunikativ yondashuv asosida qay darajada tashkil etilganligiga bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yondashuv doirasida asosan reproduktiv bilimlarga urg'u berilishi talabalarning erkin fikr bildirish, muloqotga kirishish va nutqiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi.

Shu bilan birga, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan, interfaol va integrativ metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning nutqiy kompetensiyasi samarali shakllanishi uchun

ularni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan sharoitlarda o'qitish zarur. Bu esa o'quv jarayonini kasbiy yo'naltirilganlik asosida tashkil etish, muloqotga kirishish imkoniyatlarini kengaytirish hamda amaliy topshiriqlar ulushini oshirishni taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan ta'lim muhiti talabalarning mustaqil ishlash, o'z nutqini tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu asosda talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, refleksiya va mustaqil ta'lim olish kompetensiyalari shakllanadi.

Bundan tashqari, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida baholash tizimini takomillashtirish ham muhim hisoblanadi. Aniq mezonlar va indikatorlar asosida olib borilgan monitoring talabalarning rivojlanish dinamikasini aniqlash, mavjud kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda ta'lim jarayonini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishni samarali tashkil etish uchun ta'lim jarayonida kommunikativ yondashuvni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash, interfaol metodlardan keng foydalanish, kasbiy yo'naltirilgan mashg'ulotlarni joriy etish, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash hamda talabalarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirish zarur. Mazkur omillar uyg'unligida tashkil etilgan pedagogik jarayon talabalarning erkin, ravon va samarali muloqot olib borish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Harmer J. How to teach English. An introduction to the practice of English language teaching, Edinburg: Gate Longman, 1998, 198 p.
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oily o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalar uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
3. Жинкин. Н.И. Речь как проводник информации. -М.:Наука, 1982.-159 с.
4. Krashen, S. 1989. Language Acquisition and Language Education. Hemel Hempstead: Prentice Hall International. 146 p.
5. Po'latova D.R. "Intensiv ta'lim texnologiyalari asosida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarini kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish". Diss. Pedagogika fanlari bo'yicha fal. dok. (PhD). – T., 2021. 193 b.
6. Widdowson H.G. Aspects of Language Teaching. — Oxford: Oxford University Press, 1990. — 213 p.
7. PQ-5117-сон 19.05.2021. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida <https://share.google/I9SVLKCY2JGoprNk2>.